



TENG VA ERKIN RAQOBAT SHAROITI YARATILADI

2

“YASHIL ENERGIYA” – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

3

IQTIDORLI AVLOD – YURT TAYANCHI

4

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2024-yil 25-iyun № 6 (1540)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



BUGUNGI SONDA

1944-YIL 5-MART

Mitingda bobom ham qatnashgan **5**

JARAYON

Olov e‘tiborni talab qiladi **6**

YOZ O‘TMOQDA SOZ

Bolalarga e‘tibor – kelajakka e‘tibor **7**

KORRUPSIYA

Barchamiz uchun tahdid **8**

SO‘RAGAN EDINGIZ

Sinovdan o‘tish shartmi? **9**

SALOMATLIK

Yurakni ehtiyot qiling! **10**

FUTBOL

Superliga **11**

TAFAKKUR

Hayotda xato topadiganlar ko‘p... **12**

YOSHLAR MAMLAKATNING HAL QILUVCHI KUCHI

Hurmatli “O‘zmetkombinat” AJ o‘g‘il-qizlari!

Sizlarni mamlakatimizda 30-iyunda nishonlanadigan qutlug‘ ayyom – Yoshlar kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Yurtimiz kelajagi, umid va ishonchimiz ramzi bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarimizning kuch-quvvati, jasorati va ulkan salohiyatini jamiyat manfaati uchun yo‘naltirish juda muhimdir.

“O‘zmetkombinat” AJda metallurgiya sohasini ishonch bilan o‘zlashtirayotgan 1500 nafarga yaqin yigit-qiz mehnat qilmoqda.

Yosh ishchi-xodimlarimizning faoliyatidagi salbiy holatlarning oldini olish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida ular orasida turli madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy, jismoniy-sog‘lomlashtirish tadbirlari tashkil etilmoqda. Kombinatda, zarur bo‘lsa, ta‘lim muassasalari negizida yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, ikkinchi kasbga o‘rgatish, malakalarini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yosh ishchi va mutaxassislar o‘rtasida kasb mahorati ko‘rik-tanlovlarini tashkil etish, g‘oliblarni bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash yaxshi an‘anaga aylangan.

Shuningdek, kombinat yoshlari uchun ham qo‘shimcha imtiyoz va kafolatlar belgilangan. Jumladan birinchi marta

nikohdan o‘tayotgan yosh oilalarga to‘y tantanalarida va farzand tug‘ilishi munosabati bilan bir martalik moddiy yordam ko‘rsatilmoqda.

Kombinatda yosh ishchi-xodimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur imkoniyat va sharoitlar yaratilgan.

Siz, yoshlarimiz bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, erishayotgan yutuqlaringiz bilan ruhlamayotganingiz barchamizni quvontiradi, albatta.

Hurmatli kombinat yoshlari!

Siz, shubhasiz, bizning bebaho boyligimiz, kombinat ertangi kunining umidisiz. Sizlar yurtning buguni va ertangi taraqqiyotida hal qiluvchi kuchsiz. Shunday ekan, Sizlarga xalqimiz va Prezidentimiz ishonchini oqlashda muvaffaqiyatlar tilayman. Ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lib, yangi marralarni zabt etishingizga ishonaman.

Siz, azizlarni kelayotgan yoshlik, baxt va nafosat ayyomi bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Rashid PIRMATOV,
“O‘zmetkombinat” AJ
boshqaruvi raisi – bosh direktor.

BARCHA UCHUN TENG VA ERKIN RAQQOBAT SHAROITI YARATILADI

“Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident farmoni 2024-yil 3-iyun kuni imzolandi. Bu farmon bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab 4 ta, 2026-yil 1-iyuldan boshlab 2 ta yirik korxonaga qonunchilik bilan taqdim etilgan maxsus huquqlar bekor qilinmoqda.

Farmonga ko'ra, ayrim korxonalariga qonunchilik bilan taqdim etilgan quyidagi maxsus huquqlar bekor qilinmoqda:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

“O'zmetkombinat” AJning respublika hududida qora metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) huquqi;

“O'zikkilamchiranglimetall” AJning respub-

lika hududida rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash va eksport qilish huquqi;

“O'ztreyd” AJning konsignatsiya shartlarida oziq-ovqat uni va bug'doyni, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini bank kafolatlari yoki siyosiy va tijorat xavflaridan eksport shartnomalarini sug'urtalash polislarini taqdim etmasdan eksport qilinadigan mahsulotlarni savdo uylari manzillariga tushirish huquqi;

“O'zkimyoiimpeks” MCHJning “O'zkimyosanoat” AJ tashkilotlari kimyoviy mahsulotlari eksporti hamda ularning ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar importini amalga oshirishdagi yagona agent

huquqi;

b) 2026-yil 1-iyuldan boshlab:

“UzGasTrade” AJning tabiiy gazni yagona eksport qiluvchi va import orqali tashqi manbalardan markazlashgan tartibda xarid qilish bo'yicha yagona operator sifatidagi huquqi;

“O'zenergosotish” AJning elektr energiyasining eksporti va importini markazlashgan tartibda amalga oshirish huquqi.

Hujjat bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

qora va rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish), qayta ishlash va realizatsiya qilish, shuningdek, tabiiy gaz va elektr energiyasining ulgurji va chakana savdo faoliyatlarini litsenziyalash tartibi joriy etiladi.

“O'ZMETKOMBINAT” AJ BU CHORA-TADBIRLARNI SHAK-SHUBHASIZ QO'LLAB-QUVVATLAYDI

O'zbekistonda qora metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi ishlab chiqaruvchi “O'zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyun kuni “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi 85-sonli farmoni munosabati bilan quyidagilarni ma'lum qiladi.

Uzoq yillardan beri “O'zmetkombinat” AJ O'zbekiston Respublikasi hududida qora metall parchalarini yig'ish va xarid qilish jarayonining monopol operatori hisoblanadi. Kombinat respublikaning barcha hududlarida qora metall parchalari va chiqindilarini xarid qilish, qayta ishlash va yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi 1000 dan ortiq xodimlariga ega 38 ta uchastkadan iborat 13 ta metall parchalarini sotib olish bo'yicha filiallari mavjud. Tarmoqning moddiy-texnik bazasi istalgan hajmdagi qora metall parchalarini qabul qilish, laboratoriya sinovlarini o'tkazish, saralash, xarid qilish va transportga yuklash hamda “O'zmetkombinat” AJning Bekobod shahridagi ishlab chiqarish quvvatlariga yetkazib berish imkonini beradi. Filiallar barcha zarur jihozlar, mashina va mexanizmlar bilan ta'minlangan. Yillik metall parchalarini tayyorlash (xarid qilish) hajmi taxminan 700 ming tonnani tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, tayyorlangan (xarid qilingan) metall parchalarni umumiy hajmining uchdan bir qismidan ko'p bo'lmagan miqdori davlat tomonidan belgilangan monopol narx bo'yicha, qolgan qismi esa xususiy yetkazib beruvchilardan bozor narxlarida xarid qilingan. Bunday yondashuv yig'ish punktlariga parchalarni yetkazib beruvchi xususiy xarid



guruhlari faoliyatini rag'batlantirish zarurati bilan bog'liq. 2022-yildan beri monopol narxlarda parchalarni xarid qilish ulushi ikki baravar kamaydi.

Kompaniya mutaxassislarining ekspert baholariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida metall parchalarini xarid qilishning umumiy hajmi yiliga 1,2-1,4 million tonnani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi mavjud farq norasmiy metall parchalari bozorining mavjudligini ko'rsatadi, bunda to'lovlar naqd yoki yarim rasmiy shaklda amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan qora metall parchalarini yig'ish bo'yicha monopol maqomga rioya qilinmagan, chunki respublikada metall parchalarini yig'ish va sotishning norasmiy sxemalari mavjud edi.

E'lon qilingan hujjatga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan qora metall parchalari va chiqindilarini xarid qilish (sotib olish), qayta ishlash va sotish bo'yicha litsenziyalash tartibi joriy etiladi. Qora metall parchalarini yig'ish va xarid qilish uchun litsenziya talablarini joriy etish

soha korxonalarida tartib-qoidalariga rioya etilishi, xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining sifati va darajasini oshirish, bunday korxonalarining rasmiy aylanmasini oshirish va bozorda teng mehnat sharoitlarini yaratish imkonini beradi. Sohadagi ishlarining shaffofligini oshirish metall parchalarini yig'ish hajmini oshirishni ta'minlaydi va kombinat xomashyo bazasini kengaytiradi.

Shu bilan birga, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar qora va rangli metallar parchalari va chiqindilarini tayyorlash (sotib olish), qayta ishlash va sotishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi topshirildi.

“O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan sohada shaffof bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, mehnat xavfsizligi talablarini oshirish va mehnat qonunchiligini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni shak-shubhasiz qo'llab-quvvatlaydi.

Kombinat bu vaziyatda o'zida keng va yaxshi jihozlangan metall parchalarini xarid qilish tarmog'ining mavjudligini, boshqa korxonalar uchun tashkil etilishi va joriy etilishi kerak bo'lgan xavfsizlik standartlariga muvofiqligiga ega ekanligini, shuningdek, “O'zmetkombinat” AJ tomonidan talabning sezilarli hajmi mavjudligini, bu xususiy yetkazib beruvchilardan kafolatlangan to'lov shartlari bilan muntazam, deyarli cheksiz ravishda metall parchalarini sotib olish imkoniyatini berishini o'zining afzallik tomonlaridan deb hisoblaydi.

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Bugun insoniyat taraqqiyotini energiyasiz tasavvur etish qiyin. Negaki, hamma narsa shunga bog'langan. Kamiga esa hozirgi paytga kelib energiyadan foydalanish hajmi shunchalik ko'paydiki, bu, hatto, butun insoniyatni shoshirib qo'ydi, desak mubolag'a bo'lmadi.



DADIL QADAMLAR TASHLANDI

Ma'lumki, o'tgan asrning oxirgi o'n yilligidan boshlab energiyaning qayta tiklanadigan ekologik toza manbalari – quyosh va shamol quvvatidan foydalanishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Zero, quyoshli kunlarga boy O'zbekiston uchun bu ayni muddaodir.

“Yashil energiya”dan foydalanish nafaqat butun sayyoramizda ekologik vaziyatni yaxshilaydi, balki hozirgi iqtisodiy sharoitda iste'molchilar uchun foydalidir. Jahonda qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanish tobora qimmatlashmoqda. Shu bilan birga, uning yordami bilan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi ham qimmatlashib boryapti. Bu oxir-oqibat har birimizning daromadimizga, shuningdek, ekologiyaga ham salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarida ishlaydigan kichik elektr stansiyalarini ishlab chiqarish, sotib olish, o'rnatish va ulardan foydalanish ko'plab milliy hukumatlar, jumladan, O'zbekiston hukumati tomonidan har tomonlama rag'batlantiriladi va hatto subsidiyalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiyani tejavchi texnologiyalarni joriy etish va kam quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori va 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohaslarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, sohada ishlarni kompleks tashkil etish borasida muhim hujjat bo'ldi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda energiya barqarorligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida dadil qadamlar tashlandi va salmoqli natijalarga erishildi.

QATOR LOYIHALAR AMALDA

Bu borada “O'zmetkombinat” Ajda ham bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab



chiqarish bo'linmasining ombori tom qismiga quvvati 10 kVt, Energetika tarmoqlarini ta'mirlash bo'linmasining tom qismiga esa quvvati 5 kVt elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quyosh panellari o'rnatilib ishga tushirildi.

Tarkibiy bo'linmalarining o'z ehtiyojlariga yarasha issiq suv bilan ta'minlash maqsadida quyosh suv isitgichlari (Geleokollektor) ham o'rnatilmoqda. Metall konstruksiyalar bo'linmasining tom qismiga 10 ta komplekt 2000 litrli, Elektr tarmoqlari va podstansiyalar bo'linmasining Transformatorlarga xizmat ko'rsatish uchastkasi tom qismiga 2 ta komplekt 400 litrli hamda Metallurgiya podstansiyasi tom qismiga 1 ta komplekt 200 litrli va Mexanika bo'linmasining tom qismiga 1 ta komplekt 200 litrli quyosh suv isitgichlari o'rnatilgan.

HAM SOYABON, HAM QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI



Bundan bir necha yil avval kombinat tashqarisidagi yo'lining ikki qismi ham

avtomobillar bilan to'lib ketgandi. Bo'linmalar atrofiga mashinalarni joylashtirish, umuman olganda joy topishning o'zi muammo edi. Ishchi-xodimlarga qulaylik yaratish maqsadida bo'linmalar atrofiga avtoturargohlar qurilib foydalanishga topshirilmoqda. Endilikda yo'l bo'ylarida turgan avtomobillar ancha kamaydi.

Jumladan Elektrda po'lat eritish bo'linmasi atrofidagi hududda 450 mashinaga mo'ljallangan avtoturargoh barpo etilgan edi. Bu, ayniqsa, ishga mashinasida qatnaydigan ishchi-xodimlar uchun yaxshi qulaylik bo'ldi. Endilikda mana shu avtoturargohda qo'shimcha yer ajratilmagan holda quyosh fotoelektr stansiyasi qurilib ishga tushirildi. Ya'ni avtomobillar ustiga soyabon qilinib quyosh fotoelektr stansiyasi o'rnatildi.

900 kVt.soat quvvatga ega (on-grid tizimli) quyosh fotoelektr stansiyasi elektr quvvatlarini berish bilan birga avtomashinalar uchun soyabon vazifasini ham bajarmoqda. Tarmoqqa tizimli ulangan ushbu stansiyaning yillik elektr energiyasini ishlab chiqarishi 1 623 700 kVt soatni tashkil etadi. Bu tabiiy gaz, elektr energiyani tejash bilan birga atmosferaga zararli issiqxona gazlari chiqishining ham oldini oladi.

TALABNI QANOATLANTIRADI

Umuman, yurtimizda, kombinatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yaqin istiqbolda o'zining samaradorligini yanada aniq ko'rsatadi.

Aytish joizki, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishning amaliyotga tatbiq etilishi ijtimoiy va uy-joy kommunal sohalarda, iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish energiya samaradorligini oshirish orqali yurtimizning

barcha hududlaridagi energiya taqchilligini bartaraf etishga va investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratadi. Ayni chog'da tabiiy gazni tejash, atmosferaga zararli tashlanmalarni qisqartirish imkonini ham beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bu sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar aholining energiya resurslariga bo'lgan talabini qanoatlantirishga, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Diyor ZULFIQOROV.



2024-YIL - YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

IQTIDORLI AVLOD - YURT TAYANCHI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan ma'ruzasi-da yoshlarning huquq va manfaatlarini to'laqonli ta'minlash, ularning orzu-maqсадlarini yuzaga chiqarish yo'lida ulkan imkoniyatlar yaratish, yosh avlod manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni qiynayotgan har bir muammoga yechim topish borasida aniq vazifalar belgilangan.

Kombinatda mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shayotgan 1500 ga yaqin yoshlar ishlaydi. Tarkibiy bo'linmalarda O'zbekiston Yoshlar ittifoqining 31 ta boshlang'ich tashkiloti tashkil etilgan.

Kombinat yoshlar yetakchilari kengashi kombinat yoshlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda ularga yordam ko'rsatadi, muammoli masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi, bu masalada kombinat rahbariyatiga takliflar kiritadi. Yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha turli tadbirlar va "davra suhbat-

lari" tashkil etadi, badiiy adabiyotga qiziqishni rivojlantiradi, sport musobaqalari, turnirlar va spartakiadalar o'tkazadi, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qiladi. Masalan, "Kitobsevar" an'anaviy tanlovlari, boshqaruv raisi kubogi uchun mini-futbol musobaqalari shular jumlasidandir.

Kombinat rahbariyati yoshlarning ilmiy va kasbiy rivojlanishi uchun ham imkoniyat va sharoitlar yaratgan. Xususan, kombinat yoshlari o'rtasida innovatsion konferensiyalar o'tkazilib, unda yoshlar o'z innovatsion g'oyalari va loyihalari bilan ishtirok etishadi va takliflarning eng yaxshilari ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Yosh mutaxassislar "Eng mohir yosh tokar", "Eng mahoratli yosh payvandchi", "Eng yaxshi yosh elektromontyor" kabi kasb ko'rik-tanlovlarda qatnashib kelishadi.

Yoshlarning bo'sh vaqtiga "Zakovat" intellektual o'yini hamda "Quvnoqlar va zukkolar" belashuvlari ham mazmun bag'ishlab kelmoqda.

Yoshlarning bo'linma rahbarlari bilan "ochiq muloqotlari" yo'lga qo'yilgan. Faol yoshlar har yili mehnat faxriylari bilan uchrashuvlarda qatnashib, ular to'plangan tajriba va bilimlar borasida fikr almashadilar.

Korporativ volontyorlar harakati kombinat rahbariyati, Yoshlar yetakchilari kengashi, Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi hamda Korporativ munosabatlar bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan ko'ngilli yoshlar jamoasi sifatida faoliyat olib boradi.



Korporativ ko'ngillilar ishchilarning ijtimoiy dasturlarda ixtiyoriy ishtirok etishiga hissa qo'shib kelishmoqda. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga, nogironlarga, yetimlarga, qariyalarga va doimiy g'amxo'rlikka muhtoj yolg'iz insonlarga yordam ko'rsatish korporativ volontyorlar harakatining ustuvor yo'nalishlaridir.

Kombinatning asosiy kirish eshiklari oldiga maxsus qutilar joylashtirilgan bo'lib, ularga kombinat ishchi-xodimlari turli kiyimlar va kunlik ehtiyoj buyumlari, kitoblarni qoldiradilar. Yig'ilgan buyumlar ehtiyojmandlarga tarqatiladi. Mamlakat Prezidenti tomonidan 2024-yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi yoshlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi faol va bevosita ishtiroki uchun dasturilamal hisoblanadi. Uni amalga oshirishda esa, yigit-qizlarimizdan yuqori salohiyat va bilim talab etiladi.

Abdug'affor MIRZAYEV,
kombinat yoshlar yetakchilari
kengashi raisi.



KASBIY BILIMLARI OSHIRILMOQDA

"O'zmetkombinat" AJda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ishchi-xodimlar, ayniqsa, yoshlarning kasb mahoratini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Mana shu maqsadda yoshlar o'rtasida kasb mahorati tanlovlari tashkil etilmoqda.

Ana shunday tanlovlardan biri yaqinda Yoshlar yetakchilari kengashi tashabbusi bilan kombinat markaziy laboratoriyasida faoliyat yuritayotgan, 35 yoshdan oshmagan laboratoriya xodimlari o'rtasida tashkil etildi.

"Eng yaxshi yosh laborant" kasb-mahorat tanlovi ikki bosqichda bo'lib o'tdi. Birinchi bosqichda ishtirokchilarning nazariy bilimlari sinovdan o'tkazildi. Ularga laboratoriya mutaxassisligiga oid 20 ta test savollari berildi. Ikkinchi - amaliy bosqichda tanlov hay'ati a'zolari tomonidan ishtirokchilarga foydali kimyoviy elementlar va ishlab chiqarish jarayonlariga oid bo'lgan savol va topshiriqlar berildi.

Test va amaliy topshiriqdan yuqori ball olgan ishtirokchilar orasidan g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Tanlovda birinchi o'rinni Sarvinoz Niyozmetova egalladi, ikkinchi o'rinni Fotima Hasanova qo'lga kiritdi, uchinchi o'rin Izolat Hakimovaga nasib qildi. Tanlov



g'olib va sovrindorlari kombinat tomonidan diplom va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Mana shunday kasb mahorati tanlovlari kombinat yoshlarini har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib kamol topishiga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlashga, iqtidorli yosh mutaxassislarning kasbiy bilim va darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Yoshlar kuni munosabati bilan 22-iyunda "O'zmetkombinat" AJ Yoshlar yetakchilar kengashi va kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi hamkorligida 30 yoshgacha bo'lgan kombinat ishchi-xodimlari ishtirokida velomarafon o'tkazildi.

VELOMARAFON O'TKAZILDI

Erkaklar va ayollar o'rtasida alohida bo'lib o'tgan velomarafon kombinat hududi bo'ylab o'tkazildi. Velosipedchilar Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'linmasi yonidagi "Kasaba market" do'koni oldidan start olishdi.

Murosasiz o'tgan velomarafonda xotin - qizlar o'rtasida Metall konstuksiyalar bo'linmasi dastgohchisi Ganjina Sattorqulova marraga birinchi bo'lib yetib keldi. Erkaklar o'rtasida esa Bosh mexanik xizmati muhandisi Rustam Rahimov g'alaba qozondi. Musobaqa so'nggida g'olib va sovrindorlarga kombinat diplomi va qimmatbag'o sovg'alar topshirildi.

Ijroiya apparati hududidagi marra chizig'iga yetib kelgan barcha ishtirokchilarga kombinat boshqaruvi va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Bahodir RAHMONQULOV.

27-IYUN - MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

KASB BAYRAMI BILAN TABRIKLAYMIZ

Qadrli matbuot faxriylari, hurmatli Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari!

O'zbekiston tarixida "Taraqqiy" gazetasi ilk bor dunyo yuzini ko'rgan kun - 27-iyun sanasi "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" sifatida 1993-yildan buyon nishonlanib kelinmoqda. Siz aziz jurnalistika sohasining fidoyilari uchun qadrli bo'lgan bu kasb bayrami bilan barchangizni samimiy qutlaymiz.

O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi va muhim bosqichiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda jurnalist va muharrirlar, blogerlar, tele-radio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari Vatanimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, uni dunyoga tarannum etishga beqiyos hissa qo'shib kelishmoqda.

Kasb bayramimiz bilan barcha hamkasblarimizni, jamoatchi muxbirlarimizni,

"Za metall", "Bekobod yangiliklari - Novosti Bekabada" gazetalarini, mamlakatimiz barcha Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tabriklaymiz. El-yurt manfaati va Vatanimiz salohiyatini bundan-da yuksaklarga ko'tarish yo'lidagi mas'uliyatli ishlar-ingizda yangidan-yangi zafarlar tilaymiz. Siz sharafli kasb egalaringa doimo g'ayrat, kuch va shijoat hamroh bo'lsin!

"Metallurg minbari" gazetasi tahririyati.

1944-YIL
5-MART:

MITINGDA BOBOM HAM QATNASHGAN

GAZETAMIZNING
DASTLABKI
O'QUVCHILARI VA
TARG'IBOTCHILARI

Bu yil O'zbekiston metallurgiya kombinati 80 yoshga to'ldi. Ma'lumki, Marten sexi pechida dastlabki bor po'lat eritilgan kun metallurgiya zavodi ishga tushgan sana sifatida tarixga bitilgan. Bu muhim voqea urushning og'ir yillarida, 1944-yil 5-mart kuni sodir bo'lgan.

Hozirgiday esimda, o'n yil oldin bobomga (ruhlari shod bo'lsin Ilohim!) kombinatning 70 yilligi munosabati bilan korxonamizda bo'lib o'tgan bayram tantanalari, Marten sexida yubiley eritmasi olinganligi, unda birinchi o'zbek po'lat erituvchilari ishtirok etganligi haqida gapirib bergandim.


Suhbatimiz chog'ida bobomning bir gapi meni hayratda qoldirdi. Bundan 80 yil avval - 1944-yil 5-mart kuni Marten sexida ilk po'lat eritmasi olinganligi sharafiga o'tkazilgan mitingda bobom ham qatnashgan ekan. Shuningdek bobom 1943-yildan nashr etila boshlangan "Za metall - Metall uchun" gazetasining dastlabki o'quvchilari, uning targ'ibotchilari bo'lishgan ekan.

Men bobomdan shu haqida batafsil so'rab olgan edim. Bobomning xotiralari bilan quyida Sizlar bilan o'rtoqlashmoqchiman.

"QURUVCHILARGA O'QIB
BERARDIK"

"Shahrimizdagi Farhod kanali ikkinchi jahon urushi paytida qurilgan. Bu ulkan qurilishda mamlakatimizning barcha burchaklaridan ishchilar qatnashgan. Biz o'sha yillari juda yosh edik, shunga qaramay men va sinfdoshlarim keng ko'lamlil qurilishga o'z hissamizni qo'shishga harakat qildik. Biz o'sha davrda 12-13 yoshda edik, sinfda atigi yetti o'quvchi bor bo'lib, ulardan ikkitasi qizlar edi. Har kuni darsdan so'ng sinf rahbarimiz Qobiljon Xojimurodovning topshirig'iga ko'ra qurilish maydonlariga borardik.

Ishchilar bizni intizorlik bilan kutishardi, chunki ularning oldiga biz "yangiliklarga to'la savat" bilan borardik. Ustozimiz har kuni darsdan keyin markaziy gazetalarni qo'limizga tutqazib, ishchilar oldiga jo'natardi. Biz tushlikdan sal oldinroq yetib kelib bironta tepalikka yoki katta toshning ustiga



o'tirib gazetadan so'nggi xabarlarini kanal quruvchilariga o'qib berardik. Atrofimizdagi ishchilar bizni diqqat bilar tinglardilar. Ularning qiziqishlarini sezib, biz gazetani yanada balandroq va ifodali o'qishga harakat qilardik. Ayniqsa, frontlardagi yangiliklarni barcha katta e'tibor bilan tinglardi. Albatta, biz ularga ko'proq xushxabarlarni yetkazishga harakat qilardik. Chunki bunday ma'lumotlar odamlarni xursand qilardi, ularga yanada ko'p kuch-quvvat va ishonch bag'ishlardi.

Shu davrda Bekobodda metallurgiya zavodi qurilishi boshlangani haqida yana bir yangilik tarqaldi. Bu yangilik Farhod kanali qurilishlarida ishlayotgan barchani qiziqtirardi. Zavod qurilishining jarayonlari haqida hamma mish-mishlar orqali eshitardi.

HAMMAGA GAZETANING
YANGI SONI BERILDI

1943-yilning iyun oyidan boshlab sinf rahbarimiz zavod qurilishi haqida endigina chiqa boshlagan "Za metall - Metall uchun" gazetasi orqali xabar berish tashabbusi bilan chiqdi. Shu kundan boshlab ushbu gazeta yordamida metallurgiya zavodining qurilishi jarayonlari haqida ishchilarga ma'lumot yetkaza boshladik. Biz quruvchilarga eng so'nggi yangiliklar va qiziqarli maqolalarni o'qib berishga harakat qilardik. Eng katta xushxabarlardan biri 1944-yilda O'zbekiston metallurgiya zavodining ishga tushganligi to'g'risidagi maqola bo'ldi. Esimda, bu ma'lumotni ishchilarga tushliklari vaqtida o'qib berdik. Bu yangilik ular tomonidan katta quvonch bilan qabul qilingan edi.

Zavodning ishga tushishi sharafiga o'tkazilgan miting mening xotiramda alohida joy olgan. Biz maktab o'quvchilarini oqsoqollar bilan birga ushbu bayramga taklif qilishgandi. Hammamizga "Za metall - Metall uchun"

gazetasining yangi sonini taqdim etishdi. Esimda, o'sha gazeta sonida sobiq ittifoq rahbariyatining zavod ishga tushayotganligi munosabati bilan tabrik telegrammalari chop etilgandi.

BAYRAM MITINGIDA

Umuman olganda, bu kun men uchun unutilmas bo'ldi. Bayram mitingida men O'zbekistonimiz rahbari Usmon Yusupovni, birinchi o'zbek po'lat erituvchilarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim.

Mitingda Usmon Yusupov barchani metallurgiya zavodi ishga tushishi bilan tabriklab, yaqin kunlarda o'zbek yoshlarimiz Rossiya metallurgiya korxonalariga ishlab chiqarish jarayonini o'zlashtirish uchun yuborilishini e'lon qildi. Mitingda u kishining "O'zbekiston metallurgiya zavodining asosiy kadrlari o'zbek yoshlari bo'lishi kerak!" degan gaplari hech qachon yodimdan chiqmaydi. Haqiqatan ham ko'rib turganimizdek, uning so'zlari ro'yobga chiqdi.

Bugungi kunda farzandlarim va nabiralarni O'zbekiston metallurgiya kombinatida mehnat qiladilar. Hozir 87 yoshdaman. Afsuski, quruvchilarga gazeta o'qib bergan barcha sinfdoshlarimdan faqat men hayotman. Hayotning hazilini qarang-ki endilikda ular "Za metall" va "Metallurg minbari" gazetalarni menga olib kelib berishmoqda. Bu gazetalarni ko'rganimda doimo sinfdoshlarimni va ular bilan birga Farhod kanali qurilishi maydonlariga borib ishchilarga gazetalardan o'qib berganligimizni tez-tez eslayman".

BIZ UCHUN JUDA QADRLI

Bobomning bu xotirasi biz uchun juda qadrli. Qarang-ki kombinatimiz qurilishi va uning ishga tushishi, "Za metall - Metall uchun" gazetasi hatto o'sha davr o'quvchilarini ham juda qiziqtirgan ekan. Hatto yosh bolalar ham imkoniyatlari darajasida ko'ngilli ravishda quruvchilarga dalda berishgan, gazeta yangiliklarini ularga yetkazib kayfiyatlarini ko'tarishgan.

Jonajon kombinatimiz qurilishi, so'ng taraqqiyotiga hissalarini qo'shganlarni minnatdorlik bilan yodga olib, ularga ta'zim qilamiz. Biz bugungi avlod metallurgilariga ularning hayotlari, mehnatlari ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Sanjar BEKMURODOV,
"Metallurg minbari" gazetasining
jamoatchi muxbiri.

IFTIXORIMIZ TIMSOLI

Mamlakat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning barqarorligida davlat ramzlarining alohida o‘rni bor. Shu ma’noda, gerbimiz davlat va jamiyat hayoti, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rni hamda rolini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har birimiz uchun iftixor timsoli hisoblanadi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo‘lidagi islohotlar jarayonida xalqimizning milliy g‘ururini ko‘tarishga, ozod va obod Vatan barpo etishga bo‘lgan intilishi, shijoatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Davlatimiz ramzlari, jumladan, gerb loyihasi ishlab chiqilib, keng muhokamalar asosida qabul qilindi. Bu borada muhim ishlardan biri bo‘ldi.

Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda 616-XII-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Davlatimiz gerbi tasviri muhrlarda va davlat idoralari blankalarida, rasmiy nashrlarda, qog‘oz va tanga pullarda, qimmatli qog‘ozlar va fuqarolik pasportida hamda qonunda belgilangan boshqa hujjatlardan joy olmoqda. O‘zbekiston gerbi davlatimiz chegaralarida o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so‘l tomonida bug‘doy boshqolari, o‘ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvrati tushirilgan chambardan iborat.

Gerbning yuqori qismida respub-

lika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerbning markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Xumo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandiga “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zini mana shu jannatmakon yurt fuqarosi, bag‘rikeng xalqning munosib farzandi deb bilgan, o‘z mamlakati bilan faxrlangan har



bir inson gerbimizni, shu singari boshqa bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz bo‘lgan davlat ramzlarimizni Vatanimiz kabi aziz va muqaddas deb e‘tirof etishi, e‘zozlashi ham farz, ham qarzdur.

Barchamizga ma‘lumki yoz fasli kelishi bilan kunlar isib aholining elektr sovutish qurilmalariga bo‘lgan talabi keskin oshadi. Bu esa hamyurtlarimizdan elektr qurilmalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni hamda yong‘in xavfsizligi talablariga qat‘iy rioya etishlarini talab etadi.

EHTIYOTKORLIK BILAN FOYDALANING!

O‘LOV E‘TIBORNI TALAB QILADI

“O‘zmetkombinat” AJ ob‘ektlarida yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘limi xodimlari kombinat hududidagi tarkibiy bo‘linmalarda ishlovchi ishchi-xodimlarga yong‘in xavfining oldini olish yuzasidan quyidagilarni tavsiya etadi:

- elektr jihozlarini ishlab chiqaruvchining foydalanish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmagan sharoitlarda ishlatish yoki nosozligi bo‘lgan elektr jihozlaridan foydalanmaslik;
- himoya qobig‘i shikastlangan yoki himoyalash xususiyatini yo‘qotgan elektr kabel va simlardan foydalanmaslik;
- shikastlangan (nosoz) elektr rozetkalaridan, rubilniklardan, himoya vositalaridan, elektr simlari qutlaridan va boshqa elektr qurilmalardan foydalanmaslik;
- elektr simlari va kabellarini yelimlash va bo‘yash, elektr lampalar va yoritkichlarni qog‘oz, mato va boshqa yonuvchi materiallar bilan o‘rash, shuningdek, yonuvchan materiallar saqlanadigan omborxonalar (yordamchi) binolaridagi chiroqlardan himoya qalpoqlarini yechib olgan holda foydalanmaslik;
- yonmaydigan materialdan ishlangan tagliklarisiz (podstavka) dazmol, elektr plitka, elektr choynak va boshqa elektr isitish anjomlaridan foydalanmaslik;
- tarmoqqa ulangan elektr isitish moslamalarini va boshqa maishiy elektr jihozlarini nazoratsiz qoldirish (kombinatning yong‘in xavfsizligi yo‘riqnomasida kunu tun ishlaydigan va ishlashi mumkin bo‘lgan elektr jihozlari bundan mustasno);



- yonuvchi materiallar saqlash omborxonalari va bostirmalari, yonuvchan tomlar ustidan ochiq elektr uzatish liniyalari va tashqi elektr simlarini yotqizmaslik;
- elektr tarmog‘ining yuklamasini ruxsat etilgan me‘yoridan oshirmaslik;
- qurilish-montaj, ta‘mirlash va avariya-tiklash ishlari amalga oshirilayotgan joylarni elektr ta‘minoti bilan ta‘minlash hamda vaqtincha illyuminatsiya yoritish uchun o‘tkazilgan elektr o‘tkazgichlardan tashqari vaqtinchalik elektr o‘tkazgichlardan foydalanish va ularni o‘rnatmaslik;
- tarkibiy bo‘linmalarda elektr qurilmalaridan belgilangan tartibda foydalanish;
- bo‘linma atrofini qurigan o‘tlar va chiqindilardan doimiy tozalash;
- payvandlash va gaz bilan payvandlash hamda gazli kesish ishlarida belgilangan yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etish tavsiya etiladi.

Unutmang!

Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etmaslik, yirik moddiy zararlar, insonlarning og‘ir tan jarohat olishi hamda bevaqt vafot etishi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Adham HAMDAMOV,
“O‘zmetkombinat” AJ OYOXTTEB
boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik.
Nurislom USMONOV, “O‘zmetkombinat” AJ
OYOXTTEB inspektori, kapitan.



MAXSUS-TAKTIK O‘QUV MASHQI O‘TKAZILDI

“O‘zmetkombinat” AJda favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, muhofazalanish usullari hamda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha “Tabiiy (zilzila) texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar yuz berganda ob‘ekt rahbariyati va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining birgalikdagi harakatlari” mavzusida maxsus-taktik o‘quv mashqi o‘tkazildi. Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini samarali amalga oshirish maqsadida tashkil etildi. Favqulodda vaziyatlar va radiatsiya xavfsizligi bo‘limi boshchiligidagi o‘tkazilgan maxsus-taktik mashg‘ulotda kombinatning tarkibiy bo‘linmalaridan tegishli mutaxassislar jamoasi ham qatnashishdi.

Bu kabi o‘quv-mashqlarini o‘tkazishdan asosiy maqsad tabiiy (zilzila) va texnogen tusdagi favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda tuzilmaning komandirlari va boshqaruv tarkibining qutqaruv ishlarini tashkil-lashtirish va olib borish bo‘yicha bilimlarini takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, mashg‘ulotda tuzilmaning shaxsiy tarkibi bilan tabiiy (zilzila) va texnogen tusdagi favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda vayronalar ostidan, yonayotgan binolardan odamlarni qutqarish va birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalari ham yanada oshirildi.

BOLALARGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR

O'quvchilarning yozgi ta'til davrida maroqli dam olib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarida sog'lomlashtirish oromgohlarining o'rni beqiyos. Yozgi oromgohlar jismoniy faollik, ijtimoiy o'zaro ta'sir, shaxsiy o'sish va o'yin-kulgini o'zida mujassam etadi. Bu esa bolalarning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi uchun qimmatlidir. Shu bois yozgi sog'lomlashtirish mavsumiga har yili ham o'zgacha tayyorgarlik ko'riladi.

"O'zmetkombinat" Ajda metallurglarning farzandlari uchun qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Metallurglar farzandlarining "Sohil" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yoz faslida besh mavsumda faoliyat ko'rsatuvchi oromgohning bir mavsumi 12 kundan iborat. Har bir mavsumda oromgoh 140 nafar o'g'il va qizni o'z bag'riga qabul qilib oladi. Mavsum yakuniga qadar 700 nafar bola dam olib sog'lomlashtirilishi rejalashtirilgan.

12-iyun kuni "O'zmetkombinat" AJ va kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi hamkorligida tashkil etilgan bu bolalar sog'lomlashtirish oromgohida birinchi mavsum boshlandi.

Mazkur dargohda bolajonlarning maroq-



li dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yozgi oromgoh ekologik toza hududda joylashgani bolalar salomatligi uchun muhim



ahamiyatga ega. Mavsum davomida bolajonlarning vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun oromgohda turli ko'ngilochar tanlovlar tashkil etiladi. Shu bilan birga bolalar ingliz tili, robototexnika va kompyuter texnologiyalari to'garaklarida shug'ullanadilar.

"Sohil" oromgohiga o'z ishiga sidqidildan yondashadigan pedagog-tarbiyachi, yetakchi, to'garak rahbarlari, ichki ishlar xodimlari jalb etildi. Tibbiyot xodimlari bolalar sihatini nazorat qilib borsa, yetakchilar turli qiziqarli o'yin va musobaqalar bilan ular vaqtini maroqli o'tkazishga yordamlashadi. Oshpazlar esa mazali taomlar tayyorlab, kelajagimiz egalarining jismoniy kamolotiga hissa qo'shadilar. Asosiysi, bolalarning miriqib dam olishlari, ko'ngilli hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular oromgohlarda o'zaro do'stlashadilar, qalblari bir olam zavqqa to'lib, yangi o'quv yiliga boy taassurotlar bilan qaytadilar.

"Sohil" yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 26-iyundan ikkinchi mavsum boshlandi.

Furqat XOLIQULOV.

KIYINISH MADANIYATI - HUSN VA ODOB RAMZI

INSON MADANIYATI KO'ZGUSI

Kiyinish madaniyati – insonning tashqi ko'rinishi, ma'naviy dunyosi, estetikasi, axloqiy sifatleri va salohiyatini ochib beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda kiyimlar ham, kiyinishga bo'lgan e'tibor va talab ham o'zgarib bormoqda.

Yoshlar kiyinishida bugungi kunda asosan ikki holat boshqalaridan ajralib turibdi. Birinchisi yevropaga taqlid bachkana kiyimlar kiyish, ikkinchisi yuzni yopib olgan holda qora liboslarga burkanib olish. Bular aslida xalqimiz ma'naviyatiga, an'analariga, milliyatiga yot bo'lgan kiyimlardir.

MADANIYATIMIZGA MOS EMAS

Yoshlarimizning moda ketidan ko'r-ko'rona quvishlari va yangi chiqqan tor, ochiq, kalta liboslarni moda deya e'tirof etishlari va bu turdagi kiyimlar albatta kiyilishi kerak deb fikrlashlari ayni haqiqat. Bu kiyimlarning o'zbekona madaniyatimizga, mentalitetimizga xos emasligi haqida esa o'ylab ko'rishmayapti. Bugun ko'chakuyda, yevropaga taqlid qilib kiyinayotgan yoshlarimizda milliyatimiz aks etgan kiyimlar tobora kamayib bormoqda.

Yevropa modasi deb urf bo'lgan bemani kiyimlarni kiyib o'zini bugunning zamonaviy yoshlari deb hisoblaydigan har bir yigit va qiz qattiq adashadi va aksincha ular o'zlarining ma'naviyati, tafakkuri va dunyo qarashi qanchalik sayoz ekanligini "zamonaviy" liboslari orqali namoyon etishmoqda.

Yigit va qizlarimizning kiyinish madaniyatida ota-onalarning alohida o'rni bor. Tanasiga yopishib turuvchi yoki kalta va ochiq kiyimlarni o'z qizlariga olib berayotgan ayrim ota-onalar buning salbiy oqibatlariga olib kelishini bilisharmikan?

Kiyinish borasida nafaqat qizlarimiz balki

yigitlarimiz ham tobora "zamonaviylashib" borishyapti. Har xil bemani yozuv va rasmlar tushirilgan futbolka, kalta shim va shippaklarda ko'chani to'ldirib yurishgani ayni haqiqat. Sigaret chekayotgan odamning surati tushirilgan yoki skelet rasmi solingan futbolkalarni kiyishga ishtiyoqmand yigitlarimizning bu ishlari madaniyatimizga to'g'ri kelmasligini anglay olishmayapti. Eng avvalo ota-ona o'z farzandining kiyinishiga e'tibor berishi, doimiy nazorat qilishi zarur. Shundagina yuqorida keltirilgan muammolar va salbiy fikrlar yuzaga kelmaydi. Istardimki, qizlarimiz ibo hayoda barchaga namuna bo'lib, yigitlarimiz haqiqiy o'zbek o'g'lioni sifatida qolishsa va kiyinish madaniyati ham milliyatimizni o'zida mujassam etgan eng muhim omil ekanligini yodda saqlashsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

"KIYIMLARINGIZDAN OQINI KIYING!"

Libos o'zgalar e'tiborini jalb qilmasligi muqaddas Islom dinimizda ta'kidlangan. Ayol va qizlar libosi nazar tushganda o'ziga tortadigan, turli xil bezakli, yaltiroq, qad-qomatni bildiradigan darajada tor, teri rangini bildiradigan darajada shaffof

bo'lmasligi lozim.

Kiyinish odobiga rioya qilish inson ma'naviyatini ham go'zallashtiradigan vositadir.

Biroq bugungi kunda har turli modalar qatori qo'shtirnoq ichidagi qora hijoblar ham chiqib kelmoqda. Boshdan oyoq qoraga burkanib, yuzlariga parda tortishni taqvo libosi deb kiyinmoqdalar. Aslida haqiqatdan shundaymi? Alloh taolo aytadi: "Bitahqiq sizlarga avratlaringizni to'sadigan libos va ziynat libosini nozil qildik. Taqvo libosi ana o'sha yaxshidir". (A'rof surasi. 26-oyat).

Taqvo libosi deb insonning ichki va tashqi holatini go'zal xulqlar bilan ziynatlanishi aytilmoqda. Qoralikka burkanish taqvo libosi deyilmayapti.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kiyimlaringizdan oqini kiying. Albatta ular kiyimlaringizning xayrlisidir, hamda ular bilan o'liklaringizni kafanlanglar"-dedilar. ("Hadis va hayot". 16-17-juz 243-bet). O'z qadriyatlarimizga mos kiyinmog'imiz fitnalar chiqishidan saqlaydi. Ziyosharqdan deganlaridek, azaliy qadriyatlarimiz bizni xushxulq bo'lishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, aslida qanday kiyinish har bir insonning shaxsiy ishi. Lekin bu borada boshqa millat vakillariga taqlid qilish milliyatimizga umuman to'g'ri kelmaydi. Kiyim tanlash borasida avvalo, me'yorni unutmay ozoda, yarashgan kiyimlarni kiyishimiz kerak.

Nigora ATAXANOVA,

"O'zmetkombinat" Ajning Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi.

Korrupsiya – jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini izdan chiqarib, adolatsizlik natijasida insonlar o'rtasida notenglikni yuzaga keltiruvchi, ayrim mansabdor shaxslarning nohalol yo'l orqali mablag' orttirib, jamiyat tanazzuliga yuz tutishiga sabab bo'luvchi, qisqacha aytganda, barcha mamlakatlar oldida turgan global muammo hisoblanuvchi jirkanch illat sanaladi. Bu illatga qarshi necha ming yildan buyon qarshi kurash olib borilsada, chek qo'yishning imkoni bo'lmayapti. Hattoki Qur'oni karimda ham poraxo'rlik bo'yicha shunday deyilgan: "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang".

KORRUPSIYA BARHAMIZ UCHUN TAHDID

Korrupsiya – bir so'z bilan aytganda hamma narsaning ofati, niyatlarni payhon qiladigan, orzularni toptab tashlaydigan, adolat ildiziga bolta urib, inson qaddini bukib qo'yishga qodir ichki dushman u.

Korrupsiya – inson aqlini ozdirib, nafsi quliga aylantirishga qodir mo'rt tuyg'u, yolg'onlarda yaltirab ko'ringan soxta oltin, gullab turgan hayot rangini xiralashtiradigan, odamlar xavfsizligiga tahdid solib, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa xunuk hodisalarning ildiz otib ketishiga sharoit yaratib beradigan soxta yuzsiz do'st u.

Korrupsiya – aralashgan joyda iste'dod chekinib, bachkanalik o'zini namoyon eta boshlaydi. Mag'lubiyatga mukofot tegib, yutuq va malaka g'oliblik maydonini tark eta boshlaydi. Amal kursisiga o'rnashib olgan subitsizlik sabab rivojlanish jarayoni chirish bosqichiga ko'chadi.

U sabab, haq o'rnini nohaqlik, poklik o'rnini nopoklik, adolat o'rnini esa zulm, xiyonat egallaydi.

Har bir inson halol rizq talab qilishi bilan birga, birovning haqqidan hazar qilishi va o'zgalarning molini nohaq yo'llar bilan o'zlashtirmasligi o'ta muhimdir.

Hayotda o'zgalarning haqqiga tajovuz qiladigan, o'zgalarni molini o'zlashtirib oladigan kimsalar, garchi ko'zga "uddaburon kishilar" bo'lib ko'rinsa-da, nochor va bechora, baxtsiz kishilar aynan o'shalardir.

Nazarimda bu ofatlardan qutilishning yagona yo'li andisha tarozisi va huquqiy savodxonlik. Ana shundagina boshqa ko'plab muammolar qatori poraxo'rlik muammosining ham oldi olinadi.

Farzandlarimizga bolaligidan pokni nopokdan,

Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi!



halolni haromdan farqlashni o'rgata olsak biz bu muammo yechimiga olib boradigan kalavanning uchini topgan bo'lamiz.

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish birinchi navbatda oiladagi muhit va ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

Qadrlil metallurqlar!

Farzandlarimizni korrupsiya, poraxo'rlik kabi harom topilgan boyliklarga nafrat ruhida tarbiyalasak albatta kelajagimiz porloq bo'ladi. Mamlakatimiz mustahkam, xalqimiz farovon, yurtimiz gullab yashnaydi.

Hasanboy SHOKIROV.

Komplaens xizmati bilan hamkorlikda tayyorlandi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHUVCHI VAKOLATLI ORGANLARNI BILASIZMI?

2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni kuchga kirgan. Shu

qonunda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar tizimi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlaridir. Qonunga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish

bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga asosan boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Shu bilan birga Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishdan iboratdir.

EL NAZARIDAN QOLMANG!

OCHIQ SUD MAJLISIDA

2024-yil 13-aprel kuni "O'zmetkombinat" AJ ovqatlanish kombinatiga qarashli oshxona brigadir oshpazi Shahzoda Mirzabekova (ism, familiyasi o'zgartirilgan) soat 8 dan 17 ga qadar ishda bo'ladi. Shu kuni ish davomida u oshxonadan umumiy qiymati 676 859 so'm bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini "O'zmetkombinat" AJ hududidan yashirin ravishda olib chiqadi. Bu oziq-ovqat mahsulotlarini o'ziga tegishli bo'lgan avtomashinaga solib olib ketayotgan vaqtida, shu yerda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan ushlangan.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Sh. Mirzabekova o'z aybiga iqrar bo'ladi. Soat 13 larda oshxonadagi oziq-ovqatlarni o'lchab, ular orasidan bir qismini o'ziga tegishli mashinaga solib qo'yanligini tan oladi. U "Bu mahsulotlarni sotib kombinat oshxonasi uchun ovqat sifatini yanada yaxshilash maqsadida turli xildagi ko'katlar, ziravorlar va boshqa mahsulotlarni sotib olmoqchi bo'lganman", deb aytdi. Qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligi, boshqa bu holat takrorlan-



masligi, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligini bildirib, suddan yengillik berishni so'radi.

Sud, ish hujjatlari bilan atroflicha tanishib chiqdi. Huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrarlik ko'rsatuvidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy va ashyoviy dalilni olish bayonnomalari, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan o'z isbotini topgan deb xulosaga kelindi.

Sud, huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda uning oilaviy sharoiti, aybiga iqrarligi, yetkazilgan moddiy zarar to'liq qoplanganligi

kabilarni inobatga oldi. Shundan so'ng unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi.

Sud Malika Mirzabekovani O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topdi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida – 340 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

Odatda barcha oshxonalarda sotilayotgan taomlar sifatli bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Oshxona xodimlari o'zining xizmat vazifalarini to'liq, halol va vijdonan bajarganlarida taomlar ham albatta mazali va to'yimli bo'ladi. Biroq ovqatga yetarlicha masaliq solinmagan-da buning aksi bo'lishi barchaga ham ayon.

Shuning uchun ham halollik bilan to'g'ri ishlayotgan oshpazlardan xo'rRANDALAR doim minnatdor bo'lishadi. Ularning taomlaridagi masaliqlarga "ko'z olaytirganlar" esa barchaning nazaridan chetda qoladi.

Xurshid XALIKOV,

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi raisi.

BILIMLAR SINOVDAN O'TKAZILISHI SHARTMI?

Ishga yangi kirayotgan barcha xodimlar, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligiga oid o'quvda ishtirok etishi, xodim va rahbarlarning bu boradagi bilimlari sinovdan o'tkazilishi shartmi?

B. Niyozbekov.

Bu to'g'rida Mehnat kodeksining 362-moddasidan to'liq ma'lumot olasiz. Unga ko'ra ishga yangi kirayotgan barcha xodimlar, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berishni amalga oshirishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullari hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga oid o'quvni tashkil etishi

shart.

Yuqori xavfga ega bo'lgan ishlab chiqarishga yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kiruvchi xodimlar uchun ishni xavfsiz uslublar va usullar bilan bajarish bo'yicha dastlabki tayyor-



garlik, kasb bo'yicha bir oy davomida mehnatni muhofaza qilishga doir o'quv o'tkazilib, imtihon topshiriladi va keyinchalik mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha majburiy davriy attestatsiya o'tkaziladi.

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ushbu xodimlar va rahbarlarning kasbi hamda ish turlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitilishi, yo'l-yo'riq olishi, bilimlarining tekshiruvdan o'tkazilishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riq olmagan va bilimlari tekshiruvdan o'tkazilmagan shaxslarni ish beruvchi ishdan chetlashtirishi shart.

KIMLARNING ISHGA CHIQRILISHI TA'QIQLANGAN?

Dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayram kunlarida kimlarning ishga jalb qilinishi ta'qiqlangan, nogironligi bo'lgan xodimlarni ishga jalb qilsa bo'ladimi?

Sh. To'xtasinova.

Respublika Mehnat kodeksining 209-moddasiga asosan umumiy qoidaga ko'ra, dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayram kunlarida ishlash taqiqlanadi. Ammo normal ishlash uchun oldindan kutilmagan ishlarning shoshilinch bajarilishi zarur bo'lgan taqdirda xodimlarni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishga jalb etish ularning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert

komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Bu haqda Mehnat kodeksining 428-moddasida belgilangan.

Shu kodeksning 417-moddasiga asosan esa o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarni dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.



ISHDAN BO'SHATISH NAFAQASINI OLAMANMI?

Tibbiy xulosaga muvofiq boshqa ishga o'tmoqchi edim. Biroq boshqa ishga o'tkazishni rad etishdi. Men ishdan bo'shasam ishdan bo'shatish nafaqasini olamanmi va uning miqdori qancha bo'ladi?

B. Ilhomov.

Ma'lumki, ishdan bo'shatish nafaqasi xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganda xodimning ishdan mahrum bo'lishi oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshiriladigan, qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan bir yo'la beriladigan pulli to'lovdir.

Ishdan bo'shayotgan hammaga ham ishdan bo'shatish nafaqasi berilmaydi. Mehnat kodeksining 173-moddasida ishdan bo'shayotganlardan kimlarga ishdan bo'shatish nafaqasi belgilanishi to'liq ko'rsatilgan. Shu moddaga asosan "Xodim tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra o'ziga qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ishga o'tkazishni rad etganligi yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'lmaganligi munosabati bilan" xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ish beruvchi unga ishdan bo'shatish nafaqasini to'lab beradi.

Ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori mazkur ish beruvchidagi ish stajiga bog'liq bo'ladi.

Uch yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan, uch yildan besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan, besh yildan o'n yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun o'rtacha oylik ish haqining yuz foizidan, o'n yildan o'n besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun o'rtacha oylik ish haqining bir yuz ellik foizidan, o'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun o'rtacha oylik ish haqining ikki yuz foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

AYBDOR QOCHIB KETSA NIMA BO'LADI?

"Avariya" sodir qilib, o'sha joydan qochib ketgan shaxsga qanday chora ko'riladi?

K. Solijonov.



Bu savolga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "Yo'l-transport hodisasi yuz

bergan joydan ketib qolish" deb nomlangan 137-moddasida javob berilgan. Unga asosan yo'l-transport hodisasi qatnashchilari belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolsalar ularga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida jarima solinadi.

Agar "avariya" jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazsa yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi ularga bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravari miqdorida jarima solinadi yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan bir yil muddatga mahrum etiladi yoxud o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olinadi.

TELEFONDA GAPLASHGANLIK UCHUN JARIMA

Piyodalar o'tish joyidan telefonda gaplashib o'tganlar ham jarimaga tortiladimi?

G. Boboyeva.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida yo'l harakati qoidalarni buzgan piyodalar uchun jarimalar ko'zda tutilgan.

Ushbu kodeksning 138-moddasi 1-qismiga muvofiq piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefonda foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi, shuningdek e'tiborni chalg'itadigan boshqa

elektron vositalardan foydalanishi ta'qiqlanadi. Bu qoidani buzganlarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda ushbu jarima miqdori 13000 so'mni tashkil etadi.



Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.



YURAKNI EHTIYOT QILING!



Aholi orasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanish yildan yilga aholi orasida keng tarqalib, yosharib bormoqda. Bu kasalliklar oqibatida yuzaga keladigan o'lim holatlari bo'yicha yurak-qon tomir kasalliklari nafaqat bizning yurtimizda, balki butun dunyoda ham birinchi o'rinda turadi.



Buning asosiy sabablari tashqi muhitning o'zgarishi, aholi o'rtasida kamharakatlilik – gipodinamiya, jismoniy va ruhiy zo'riqish, ratsionda hayvon yog'lari ko'p bo'lgan mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish, chekish va spirtli ichimliklarga ruju qo'yish.

Yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy belgilari qonda xolesterin miqdorining ortib ketishi, qon tomir devorlarida xolesterin pilakchalarining paydo bo'lishi oqibatida tomir ichining torayib qolishi, qonning quyulashishi, to'qimalarga qon bilan keladigan oziq moddalar va kislorod oqimining pasayishi hamda hujayralarning kislorodga bo'lgan ehtiyojining oshib ketishi bilan namoyon bo'ladi.

Yurak-qon tomir kasalliklari ilgarilari asosan qariyalarda uchragan bo'lsa, hozirda 20 yoshli insonlarda ham miokard infarkti, arterial gipertoniya, yurak ritmining o'tkir buzilishi kabi

kasalliklar uchramoqda.

Hozirgi kunda aholi orasida yurak ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarkti va uning oqibatida kelib chiqadigan turli xil asoratlar, ya'ni surunkali yurak yetishmovchiligi, yurak ritmining buzilishi, gipertoniya kasalligi va



uning oqibatida kelib chiqadigan miya insulti, yurakning tug'ma nuqsonlari kabi kasalliklar ko'p uchramoqda.

Kasallikning aholi o'rtasida ko'payishiga va og'ir asoratli holatlarga o'tib ketishiga bir tomondan bemorlarning o'zlari ham sababchi bo'ladi.

Ma'lumki, kasallikning boshlang'ich davrlarida bemorda kasallik belgilari namoyon bo'lmaydi yoki bemorni bezovta qilmaydi. Shuning uchun har bir inson bir yilda bir marta profilaktik tekshiruvlardan oilaviy poliklinikasi orqali o'tib turishi kerak. Kasallik aniqlanganda davolash va diagnostika tadbirlarini o'tkazib, kasallikning avj olib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish kerak.

Surunkali yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'irgan bemorlar doimiy ravishda kardiolog shifokor nazoratida bo'lishi kerak.

OLDINI OLIISH
MUMKIN

Avvalo, inson sog'lom turmush tarziga amal qilishi va tibbiy madaniyatli bo'lishi, sog'lom ovqatlanishi, yetarlicha uxlashi va tinch-xotirjam yashashi lozim.

Zararli odatlar: tamaki, nosvoy chekish, spirtli ichimliklar ichishdan ongli ravishda voz kechib, ko'proq jismoniy harakat qilib piyoda yurish, biror sport turi bilan shug'ullanish, tana vaznini me'yorda saqlash uchun yog'li, kaloriyasi yuqori oziq-ovqatlardan voz kechish lozim.

Qon bosimini doimo 120/80 mm atrofida ushlab turish, qondagi qand miqdorini nazorat qilib turish, tish va tomoq kasalliklarini vaqtida davolash dardkor.

Inson o'z uyi va ishoxonasida kayfiyatni ko'taradigan sog'lom ko'rkam muhit yaratishi lozim. Tez-tez xonani shamollatib turish, toza havoda sayr qilish, yaxshilar suhbatida bo'lish, ijobiy insoniy xislatlarga ega bo'lish, atrofidagilarga nisbatan adovat va kek saqlamaslik, kechirimli bo'lish hamda shifokor maslahatiga amal qilish yurak-qon tomir kasalliklari oldini oladi.

KO'P UCHRAYDIGAN YURAK KASALLIKLARI

Koronar arteriya kasalligi: Koronar arteriyalar yurakning qon aylanishini ta'minlaydi. Koronar arteriya kasalligi bu arteriyalarning tiqilib qolishi yoki torayishi natijasida yuzaga keladi. Bu koronar arteriya kasalligi yurak xuruji va angina kabi jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

Yurak mushaklari kasalligi: Yurak mushaklari kasalligi yurak mushaklariga ta'sir qiladigan bir qator sharoitlarni anglatadi.

Yurak qopqog'i kasalligi: yurak klapanlari yurakning turli kameralari o'rtasida qon oqimini to'g'ri yo'nalishda ushlab turadi. Yurak qopqog'i kasalliklari yurak klapanlarining torayishi, oqishi yoki to'liq yopilmasligi natijasida yuzaga keladi. Ushbu kasalliklarga qopqog yetishmovchiligi, qopqog stenoz va mitral qopqog prolapsasi kiradi.

Ritm buzilishlari: yurak ritmining buzilishi yurakning normal elektr faolligidagi o'zgarishlarni

anglatadi. Ushbu kasalliklarga atrial fibrillsiya, yurak blokirovkasi va qorincha fibrillsiya kiradi.

Tug'ma yurak kasalligi: Tug'ma yurak kasalligi tug'ilish paytida yurakda paydo bo'ladigan tizimli anormalliklarni anglatadi.

Gipertenziya – yuqori qon bosimi yurakning normal faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Bu yuqori qon bosimi, yurak xuruji, insult, buyrak kasalligi va boshqa jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

UMUMIY BELGILARI

Yurak xurujining belgilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ko'krak markazida og'riq yoki noqulaylik;
- qo'llarda, chap yelkada, firsakda, jag'da yoki orqada og'riq yoki noqulaylik.
- nafas qisilishi yoki nafas

yetishmovchiligi bo'lishi mumkin;

- ko'ngil aynishi yoki qusish;
- yengil bosh aylanishi;
- sovuq terlash va teri rangi oqarib ketishi.

Ayollarda erkaklarga qaraganda nafas qisilishi, ko'ngil aynishi, qusish, bel yoki jag' og'rig'i ko'proq uchraydi.



INSULTNING ENG KO'P
UCHRAYDIGAN ALOMATLARI

- ko'pincha tananing bir tomonida yuz, qo'l yoki oyoqning to'satdan kuchsizlanishi.
- yuz, qo'l yoki oyoqning karaxtligi, ayniqsa tananing bir tomonida;
- gapirish yoki nutqning chalkashligi, tushunishning qiyinligi;
- bir yoki ikkala ko'z bilan ko'rish qiyinligi;
- yurish qiyinligi, bosh aylanishi va muvozanatning yo'qolishi;
- hech qanday sababsiz

kuchli bosh og'rig'i;

- hushdan ketish;

Ushbu alomatlarni boshdan kechirgan odamlar darhol tibbiy yordamga murojaat qilishlari kerak.



SPORTNING FOYDASI

Jismoniy mashqlar yurak uchun juda ko'p foyda keltiradi. Yurak mushaklari ni muntazam ravishda mashq qilish yurak salomatligi uchun muhimdir. Shu-ningdek, jismoniy mashqlar qon bosimini pasaytirishga yordam beradi. Yuqori qon bosimi yurak kasalliklari xavfini oshiradi, past qon bosimi esa yurak salomatligi uchun foydalidir.

Sport yomon xolesterin darajasini pasaytiradi va yaxshi xolesterin darajasini oshiradi. Bu yurak salomatligi uchun ham muhimdir. Bundan tashqari doimiy jismoniy mashqlar stressni kamaytiradi, uyquni tartibga soladi. Bular yurak salomatligi uchun foydali.

Har qanday mashqlar dasturini boshlashda har doim shifokor bilan maslahatlashish kerak.

FUTBOL: SUPERLIGA

DERBIDA IMKONIYAT BOY BERILDI

Toshkent viloyati jamoalarining so'nggi to'rtta o'yinida bekobodliklar zafar quchishgandi. 30-may kuni bo'lib o'tgan 11-turda "Metallurg" o'zi uchun ko'ngilli bo'lgan an'anani davom ettira olmadi. Qiziqarli va murosasiz ruhda o'tgan bu galgi to'qnashuvda maydon egalari kichik hisobda g'alaba qozonishdi. O'yin taqdirini hal etgan yagona gol tanaffus arafasida kiritildi.

Birinchi taymning o'rtalariga qadar tashabbus, to'p nazorati, vaziyatlar yaratish bobida ustunlik "Metallurg" futbolchilari tomonida bo'ldi. Mezbondar esa raqibdan biroz cho'chib o'ynayotganligi sezilib turdi. Biroq pozitsion va ruhiy ustunlikdan shimolliklar foydalana olishmadi. Aksincha,



tajribali Mirjalol Qosimov boshchiligidagi jamoa o'zini qo'lga ola bildi va tanaffusga chiqib ketish arafasida muhim golni kiritishga muvaffaq bo'ldi. Maydon markazida to'pni boy berib qo'ygan bekobodliklar raqibning jarima maydoniga yorib kirishi va darvoza tomon aniq zarba berishigacha vaziyatda "kuzatuvchi" rolini o'tab berdi.

Ikkinchi taymda bekobodliklar murabbiylar shtabi o'yinda burilish yasash uchun qo'ldan kelgan bor ishni qildi. Tarkibda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Biroq jamoaning o'yini oldinga emas, aksincha ortga qarab ketdi. Mavsum boshidan buyon bekobodliklar shu kuni eng yomon o'yinlarini o'tkazishdi. OKMK esa haqli ravishda g'alaba qozondi.



O'YINDA HISOB OCHILMADI

Musobaqa jadvalining so'nggi ikki pog'onasida borayotgan jamoalarning 14-iyun kuni "neytral maydonda", Olmaliqda bo'lib o'tgan uchrashuvda kuchlar teng keldi. Olti ochkolik o'yinda jamoalar ko'proq o'z darvozalari dahlsizligini saqlab qolishni o'yladi va buning uddasidan chiqishdi.

Bevosita o'yin tafsilotiga to'xtaladigan bo'lsak, bahs tomonlarning navbatma navbat ustunligi ostida o'tdi. Dastlabki daqiqalarda mezbondar sifatida "Metallurg" raqibga bosim o'tkazish payida bo'ldi. Keyin tashabbus "Bunyodkor" tomoniga o'tdi. Ikkinchi taym oxiriga kelganda bahs keskin, qarama qarshi hujumlar ostida yakunlandi.

Har ikkala jamoada muvaffaqiyat qozonish imkoniyati bo'ldi. Bekobodliklar safida darvozabon Rahimjon Davronovning ishonchli harakatini alohida e'tirof etish lozim. Shuningdek, markaziy himoyachi Rizo Yazdando'st qiyin vaziyatlarda jamoa joniga oro kirdi. Mehmonlar posboni Marin Lyubich ham o'z postida bexato harakat qildi. Shuningdek, hisobning ochilmasligiga bekobodlik hujumchilarning qator qulay vaziyatlarni ko'kka sovurishi ham yordam berib yubordi. Durang natija oqibatida tomonlar bittadan ochkolik bo'lishgan ersa-da, murosaviy yakun ikkala jamoaning ham foydasiga ishlamadi.

BOSH MURABBIY
ISTE'FOGA CHIQDI

"Bunyodkor" jamoasi bilan o'tkazilgan uchrashuvdan so'ng "Metallurg" PFK bosh murabbiyi Vesko Steshevich vazifasidan ozod etishlarini so'rab, klub rahbariyatiga murojaat etgandi. "Metallurg" PFK rahbariyati chernogoriyalik mutaxassis va uning yordamchisi Nenad Vukchevichning o'z hohishiga ko'ra ishdan ozod etish borasidagi arizasini ko'rib chiqdi va har ikkala mutaxassisning so'rovini qanoatlantirish yuzasidan qaror qabul qildi.

Vesko Steshevich "Metallurg" ruliga 2023-yilning aprel oyida

kelgandi. Uning rahbarligida bekobodliklar milliy chempionatimiz bahslarida jami 32 ta uchrashuvda maydonga chiqdi. 2023-yilgi mavsum: 22 o'yin, 7 ta g'alaba, 6 ta durang, 9 ta mag'lubiyat, to'plar nisbati - 24:26. 2024-yilgi mavsum: 10 ta uchrashuv, g'alaba yo'q, 6 ta durang, 4 ta mag'lubiyat, to'plar farqi - 8:12.

"Metallurg" PFK Vesko Steshevich hamda uning yordamchisi Nenad Vukchevichga Bekobodlik faoliyati uchun minnatdorlik bildirdi va ularning kelgusi faoliyatlarida omad yor bo'lishini tiladi.

VAQTINCHALIK BOSH
MURABBIY TAYINLANDI

Chernogoriyalik mutaxassislar iste'fo bergach "Metallurg" futbol klubini keyingi bahslarga katta murabbiy Ilyos Qurbonov tayyorlaydigan bo'ldi. Klub rahbariyati jamoaga kim bosh murabbiy bo'lishi borasida tez orada bir to'xtamga keladi.

Ilyos Qurbonov Toshkent viloyati futbol tarbiyalanuvchisi sanaladi. Futbolchi sifatida professional faoliyatini Angrenning "Semurg" jamoasida boshlagan. Keyinchalik oliy liganing "Buxoro", "Nasaf", "Dinamo", "Metallurg" jamoalarida to'p surdi. Futbolchilik faoliyatini Jizzaxning "So'g'diyona" futbol klubida yakunladi.

Ilyos Qurbonov O'zbekiston chempionatida 320 uchrashuv-

da maydonga chiqqan va darvozalarga 72 ta to'p kiritgan. O'zbekiston terma jamoasiga chaqirilgan va bitta o'yinda maydonga tushgan.

2015-yildan murabbiylik sohasiga o'tgan Ilyos Qurbonov qadrdon klubi - "Metallurg"da turli lavozimlarda ishlab kelmoqda. Avvaliga yoshlar jamoasida murabbiy, bosh murabbiy vazifalarida faoliyat olib borgan Ilyos Qurbonov 2023-yildan klubning asosiy tarkibida katta murabbiy sifatida faoliyat olib bormoqda.

Ilyos Qurbonov hamda "Metallurg" jamoamizga 2024-yilgi mavsumning birinchi davra, hal qiluvchi o'yinlarida omad yor bo'lishini tilaymiz!

YUTIB TURGAN O'YIN
BOY BERILDI

19-iyun kuni "Surxon"ga qarshi yangilangan murabbiylar shtabi bilan kelgan "Metallurg" 12-turda mavsumdagi oltinchi mag'lubiyatini qabul qilib oldi. Bu safar ham g'alabaga yaqin turib, buning ustiga bir kishi ko'p bo'lib o'ynab mag'lubiyatga uchraganligimiz yanada alamlil bo'ldi...

"Paxtakor" markaziy stadionida kechgan bahs "Metallurg" uchun omadli boshlangandek, edi go'yo. 23-daqiqada Daler Sharipov tepgan to'pni mezbondar posboni shundoqqina oldiga qaytardi. Unga birinchi bo'lib yetib kelgan Shahzodbek Ubaydullayev qiyinchiliksiz hisobni ochdi. Tanaffusga chiqib ketish arafasida esa "Surxon" futbolchisi Abdurahmonov maydondan chetlatildi. "Metallurg" ikkinchi taymni to'liq bir kishi ko'p bo'lib o'tkazdi.

Hammasi "Metallurg"ning mavsumdagi birinchi g'alabasini rasmiylashtirishga ketayotgandek edi. Ammo futbolchilarning jismoniy



tayyorgarligi, himoyadagi xatolar, konsentratsiyaning yo'qolishi va futbolchilarning ruhiy holati yana jamoani mag'lubiyat ko'chasi sari yetakladi. Avvaliga yo'q joydan penalti "ishladik". So'ngra so'nggi soniyalarda qarshi hujumni o'tkazib yubordik - 1:2. Oqibatda oltinchi mag'lubiyat. jamoa esa musobaqa jadvalining oxirgi pog'onasiga yanada mustahkam o'rnashdi.

Ertaga "Metallurg" musobaqa peshqadami "Nasaf" jamoasini qabul qiladi.

Komiljon JUMAYEV
tayyorladi.

IBRATLI HIYOYALAR

HAYOTDA XATO TOPADIGANLAR KO'P...

Bir rassom go'zal rasmlar chizdi. Va ularni ko'pchilik yig'iladigan joyga qo'yib, sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Rasmni qo'yib, tepasiga yozib qo'ydi:



"Kimda-kim bu rasmlarda ozgina bo'lsada kamchilik ko'rsa, ustiga qizil qalam bilan belgi qo'ysin".

Kechqurun kelib qarasa, rasmlar qizil bo'yoqqa to'lib ketibdi. U ustozini oldiga borib rasmdan voz kechmoqchiligini aytadi.

- Yo'q, - dedi ustoz unga. - Sen yaxshisi iborani o'zgartir: kim rasmda kamchilik ko'rsa, uni tuzatsin, deb yozib qo'y. Rassom ustozining aytganini bajardi. Buni qarangi, oradan bir necha kun o'tsa ham, rasmlarga hech kim yaqinlashmadi.

- Ko'rdingmi, - deb kuldi rassomning ustozini. - Bu hayotda hamma narsadan xato topadiganlar ko'p, biroq shu xatoni tuzatadigan - isloh etadiganlar juda kam. Alloh barchamizni isloh qiluvchilardan aylasin!



CHIROYLI KO'ZACHA

Ikki chol ko'chada ketayotib, bo-radigan manzillariga to'g'ri borish-yaptimi, yoki adashib qolishganini bilish uchun qarshilaridan kelayotgan yosh yigitdan so'rab olishmoqchi bo'lishibdi. Yigit judayam o'ziga bino qo'ygan, yoshlik havosi ila kek-kaygan ekan. Chollarning savoliga manmanlarcha javob qaytaribdi: "Bunaqa yoshdagilar uyidan chiqmay o'tirsa yaxshiroq bo'lardi!" deya dimoq-firoq qilganicha mayda qadamlar bilan olislab ketibdi.

Chollar uning ortidan qarab qolisharkan, biri ikkinchisiga debdi: "Xo'o'p chiroyli ko'zacha ekanu, afsus ichi sirkaga to'la ekan!"

Xulosa: odamzod Xudo yaratgan ko'zalar qatori. Qay biri sharbatga, qay biri sharobga, boshqasi peshobu sirkaga to'la bo'ladi.

Qozonda bori cho'michga chiqadi...

Olloyor XO'JANDIY.

TAROZI

Beva, kambag'al bir ayol uyida saryog' tayyorlab bir do'konchiga olib borib sotar edi. Baqqol ayol olib kelgan saryog'ni hech tortib ko'rmas edi. Bir kuni negadir uning ko'ngliga bir shubha tushdi. Navbatdagi olib kelingan saryog'ni tortib tekshirib ko'rdi. Bir kiloli saryog' 900 gramm chiqdi. Sotuvchi juda xafa bo'ldi.

Ertasi kuni kelgan ayolga shunday dedi:

- Endi men sendan saryog' olmayman.

Ayol dedi:

- Nega endi? Bir xatolik o'tdimi mendan?

- Sen bir kilo deb beradigan saryog'ing roppa rosa 900 gramm ekan. Ayb emasmi?

Shunda ayol dedi:

- Taqsir, mening uyimda tarozu yo'q. Men sizdan olgan bir kilo shakarni tosh o'rnida ishlataman...



HIKMATLAR GULDASTASI

Insonga asli vafodor bo'lgan narsa, bu - hayotligida qilgan solih amallaridir. Ularni mahkam ushla! Chunki ana o'shalar, sen bilan qabringning ichida ham birga bo'ladilar.

Qilgan yaxshiligini eslatma, ko'rgan yaxshiligini unutma.

Gulning go'zalligi

urug'idan; insonning husni esa qalbidandir

Odamlar suratini bezatsa, sen siyratingni beza. Odamlar boshqalar aybidan so'z ochsa, sen o'z qusuringni o'yla.

Go'zal kunlar kelishini kutma. Unga tomon bormog'ingni unutma.

Jaloliddin Rumiy.

FOYDALI MASLAHATLAR

Iliq ko'k choy asal bilan ichilganda miyaga ko'p foyda beradi.

Suvni uzoq qaynatish yoki qaynatilgan suvni yana qaynatib choy damlash juda zararli.

Jigar xastaligini behi suvi davolaydi. Behi sharbatini kuniga 1-2 kosa ichish tavsiya etiladi.

Har qanday kasallikni davolash oshqozonni qatiq zardobi bilan yuvishdan boshlanadi.

Oyog'ingiz doim toza, quruq, issiq bo'lsin.

Yotishdan oldin sabzi iste'mol qilish sog'liqqa foyda.

Tishlaringizni toza tuting.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Qur'onda zikr qilingan eng yoqimsiz halol narsa nima?

Yevropadagi qaysi davlat gerbida "Joy bermayman!" degan shior yozilgan?

O'rta Osiyo cho'lidagi yantoq bilan Meksika cho'lidagi kaktusning farqi nima?

Ta'limda baholash tartibiga muvofiq nega eng past baho bir emas, balki ikki?

Mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahriga 1901-yili nima yetib kelgan?

Qaysi hayvon besh qavatli binodan tushib ketsa ham jarohatlanmaydi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

- * Sut, asal va uzum.
- * "Po'lat quyuvchi" she'ri 1945 yilda yozilgan. Uning muallifi ko'p yillar O'zbekiston rahbari bo'lgan Sharof Rashidov.
- * Kit.
- * Andora.
- * Abu Nasr Farobiy.

HAMKASBIMIZ XOTIRASI

Iyunning o'n uchinchi kuni hamkasbimiz **Sheroz Shukuraliyev**ning vafoti to'g'risida tarqalgan noxush xabarning daf'atandigan o'zimizni yo'qotib qo'ydik. Aslida, har qanday o'lim daf'atandir. U odatdagidek ma'yus tabassumi bilan o'zi haqidagi sovuq xabarni yolg'onga chiqaradiganday nimagadir umid qildik. Afsus...

1990-yil Bekobod tumani Xos qishlog'ida tug'ilgan Sh. Shukuraliyev Jizzax Politehnika instituti qurilish fakultetini tugatgan.

Institutni bitirganidan so'ng "O'zmetkombinat" AJning Qurilish-montaj bo'linmasida ish boshladi. Uning "Metallurg minbari" gazetasida chiqqan she'rlari, maqolalari ko'pchilikka manzur bo'lgan edi. 2019-yildan buyon kombinatning Matbuot xizmatida ish boshladi. So'nggi yillarda Matbuot xizmatida internet nashrlari muharriri vazifasida ishlardi.

Ishxonada hammaga bir xilda munosabatda bo'lardi. Undan ozroqqina dili og'rigan, ko'ngli qolgan odamni topolmaysiz.

Ochiqko'ngil, hammaga yordamga tayyor, doimo ish bilan band inson endi oramizda yo'q.

Uning o'ychan chehrasi, gaplari, harakatlari yodimizdan chiqmaydi.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso nashriyot va matbaa uyi" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani "Mash'al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-14.20
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O'zmetkombinat" AJda bepul tarqatiladi.